

Buxoro – O‘zbekiston durdonasi

“Har bir shahar o‘z tarixini yodda saqlaydi, musiqa esa uni tinglashga yordam beradi”.



Buxoro – O‘zbekistonning nafaqat ko‘hna shahri, balki uning musiqiy markazlaridan biri hamdir. Bu yerda ko‘p asrlar davomida xalq qo‘shiqlari yangragan, shashmaqom asarlari ijro etilgan, milliy musiqachilik an‘analari esa bugungi kunda ham asrab-avaylab kelinmoqda.

Buxoro kompozitorlar va mualliflarni ushbu ko‘hna shaharning chiroyi va boy tarixini madh etuvchi asarlarni yaratishga ilhomlantiradi. Musiqa shaharning betakror muhiti, urf-odatlarga bo‘lgan hurmat va ona zaminga bo‘lgan mehr-muhabbatni ifodalashga yordam beradi.

Bugun siz **“Buxoro”** qo‘shig‘i bilan tanishib, uni yod olasiz. Qo‘shiqda har bir o‘zbekistonlik uchun tanish bo‘lgan siymolar va timsollar: shu zaminda yetishib chiqqan **allomalar**, **qad rostlab turgan go‘zal minoralar va qadimiy obidalar** jonlanadi. Ular ko‘hna Buxoroning o‘zgacha tarovatini his qilishga yordam beradi.



Buxoro

Ahmad Haydarov
soʻzi va musiqasi



2

- 1** Allomalar makoni,
Koʻzga surtay tuprogʻing.
Ilm-u hunarga konim,
Kuylay, ulugʻlay noming.

Naqarot:

Nur taratar dunyoga,
Qalbdagi faxrim – Buxoro.
Mehri oʻxshar daryoga,
Ona shahrim – Buxoro.
Buxoro, Buxoro,
Qalbdagi faxrim – Buxoro.
Buxoro, Buxoro,
Ona shahrim – Buxoro.

- 2** Bir-biridan chiroyli,
Obidalar rango-rang.
Minor-u masjidlari,
Ark-u toqlarga qarang.

Naqarot

- 3** Fidoyi farzandlaring,
Kamolingga yor bo'lsin.
Ozod Vatan bag'rida,
Saodating bor bo'lsin.

Naqarot



1. Qo'shiq qanday kayfiyat ulashmoqda?
2. Qanday qilib musiqa qadimiy shaharning tarovatini his qilishga yordam beradi?
3. Qo'shiqdagi qaysi so'zlar Buxoroni yorqinroq tasavvur etishga undamoqda?
4. Qo'shiq kuyi qanday: sokin, tantanavor yoki lirik?



- Qo'shiq to'rtligi va naqarotidagi kayfiyat qanday o'zgargan?
- Qo'shiqning qaysi so'zlarini ayniqsa ifodaliroq ijro etishni xohlaysiz?



- Qo'shiqni yod oling.
- Ushbu qo'shiqni sinfingiz bilan birgalikda kuylashga tayyorlaning. O'ylab ko'ring, qo'shiqning qaysi so'zlari qadimiy Buxoroning chiroyini tarannum etgan?

